

Xurshida Muradova

*Nukus davlat pedagogika instituti
Musika ta'limi va san'ati mutaxassisligi
magistranti*

E-mail: muradovakhurshida84@gmail.com

O'RTA ASRLARDA MILLIY MUSIQA CHOLG'ULARINING RIVOJLANISHI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududida shakllangan milliy musiqa cholg'ularining rivojlanishi konstruktiv va aksutik takomillashuv bosqichlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalaniladi. Natijada torli, nafasli va zarbli cholg'ularning morfologik evolyutsiyasi hamda ijrochilik san'ati bilan uzviy bog'liqligi asoslanadi. Tadqiqot natijalari milliy musiqashunoslik tadqiqotlari uchun nazariy ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:** milliy cholg'ular, o'rta asr musiqasi, ijrochilik san'ati, morfologik evolyutsiya.*

THE DEVELOPMENT OF NATIONAL MUSICAL INSTRUMENTS IN THE MIDDLE AGES

***Abstract.** This article provides a scientific analysis of the development of national musical instruments formed in Central Asia during the Middle Ages. The aim of the study is to identify the stages of constructive and acoustic improvement of national instruments. Historical-analytical and comparative methods were used in the research. The results substantiate the morphological evolution of string, wind, and percussion instruments and their relationship with performance practice. The findings have theoretical significance for modern musicology.*

***Keywords:** national musical instruments, medieval music, performance practice, morphological evolution.*

Mazkur tadqiqot Sharq musiqa madaniyati umumiy tarixiy-madaniy kontekst sifatida qaralib, asosiy e'tibor O'rta Osiyo hududida shakllangan milliy musiqa

cholg'ularining takomillashuv jarayoniga qaratilgan. O'rta asrlar Sharq sivilizatsiyasi tarixida ilm-fan, madaniyat va san'atning yuksak taraqqiyot bosqichi sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lgan davrdir. O'rta asrlar Sharq musiqiy madaniyatining yuksak rivojlangan davri bo'lib, bu jarayonda milliy musiqiy cholg'ulari muhim o'rin tutgan. O'rta asrlar Sharq musiqa madaniyati doirasida cholg'ular jamiyatning estetik didi, falsafiy qarashlari va ma'naviy qadriyatlarini mujassamlashtirgan muhim madaniy hodisa sifatida shakllangan. O'rta Osiyo hududida takomillashgan milliy musiqa cholg'ulari xalqning madaniy turmushi, ma'naviy hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, milliy musiqiy cholg'ular o'rta asr musiqa madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ularning shakllanishi va takomillashuvi ijrochilik san'ati ilm-fan va amaliy tajriba bilan uzviy bo'g'liq. Buyuk mutafakkirlar musiqa san'atiga ilmiy-nazariy jihatdan yondashib milliy musiqa cholg'ularining insonlar ruhiyatiga ta'siri haqida chuqur tahlil qilishgan [1, 2-b]. Mutaffakkir Abu Nasr Farobiyning "Musiqa ilmi haqida katta kitob", Abu Ali Ibn Sinoning musiqaga oid qarashlari, Abdurahmon Jomiyning nazariy qarashlari fikr mulohazalari o'rta asr musiqa ilmining rivojlanganligidan dalolat beradi [3]. Ushbu mutafakkirlarning ilmiy meroslari milliy cholg'u asboblarning nafaqat amaliy balki nazariy jihatdan ham katta yutuqlarga erishilganining yaqqol namunasidir. Bugungi kunda globallashuv jarayonida milliy musiqiy merosni, jumladan, o'rta asrlarda shakllangan musiqa cholg'ular tarixini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bu davr musiqa cholg'ularini tarixiy-madaniy kontekstda tadqiq etish san'atshunoslik fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududida shakllangan cholg'ularning tarixiy rivojlanish bosqichlari, takomillashuvi, sozandalik an'analari, puflama, torli, zarbli cholg'ularning konstruktiv va akustik jihatdan kengayishi, bugungi musiqa ta'limi va ijrochilik amaliyotidagi ahamiyati, madaniy hamda ijrochilik omillarni zamonaviy san'atshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Tadqiqotning muhim vazifalaridan biri o'rta asr Sharq mutafakkirlarining musiqaga oid ilmiy nazariy qarashlari, milliy cholg'ularning taraqqiyoti takomillashuvini tahlil qilishdan iborat. Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy kabi allomalarning ilmiy merosi asosida cholg'ularning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati ochib beriladi. [4, 5-b].

Tadqiqot natijalari milliy cholg'ularni o'rganish, saqlash va rivojlantirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, bu tadqiqot milliy cholg'ularni kengaytirilgan tasnifi va sozlar bilan uzviy bog'liqlikni o'zida mujassam etadi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot o'rta asrlarda milliy musiqiy cholg'ularning rivojlanishi va takomillashuvi masalasini keng qamrovda o'rganishni, mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirishni hamda yangi ilmiy xulosalar chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

O'rta asrlarda milliy cholg'ularning rivojlanishi va takomillashuvi jarayonlarini aniqlashda tarixiy yondashuv asos qilib olinadi. Tadqiqot jarayonida musiqiy merosni o'rganishda qo'llaniladigan manbashunoslik, tarixiy xronologik metodlar orqali o'rta asr yozma risolalari, musiqiy traktatlar va tarixiy hujjatlar tahlil qilindi [4, 5-b]. Bu metod cholg'ularning dastlabki ko'rinishlari, ularning konstruktiv o'zgarishlari, ijrochilik amaliyotidagi rivojlanish bosqichlarini aniqlash imkonini yaratadi. Shuningdek, o'rta asrdagi milliy cholg'ular bilan hozirgi zamonaviy milliy cholg'ularning farqli jihatlari qiyosiy tahlil etiladi. Bu kabi yondashuvlar cholg'ularning tarixiy davomiyligi va madaniy meros sifatidagi ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Nazariy xulosalarni asoslashda esa tizimli yondashuv qo'llanilib hamda musiqa madaniyati, cholg'u ijrochilik san'ati jamiyat ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda ilmiy induksiya, deduksiya usullaridan foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuvlar majmui o'rta asr milliy cholg'ularining rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashga hamda ularning san'atshunoslikdagi o'rnini aniqlashga imkon yaratadi.

O'rta asrlar (IX-XIII) O'rta Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekiston hududi uchun musiqa nazariyasi va amaliyoti, shu bilan birga, milliy cholg'ularining rivojlanishi va takomillashuvi nuqtayi nazardan oltin davr bo'ldi. Bu davrda buyuk allomalar musiqa ilmini yuksak darajaga olib chiqdilar va cholg'ularining tuzilishiga katta ta'sir ko'rsatdilar. Bu asrda torli, damli, zarbli cholg'ularning takomillashuvi yangi bosqichga ko'tarildi. Jumladan, g'ijjak sozi qadimiy kamonli cholg'ular turkumidan bo'lib, O'rta asrlarda uning kosa qismi kattalashdi, ijro etish texnikasi oshdi, tovush apparatlari kengaydi. Abduqodir Marog'iy o'zining asarlarida g'ijjakning torlari yettita bo'lganligini aytib o'tadi [4, 6-b]. Bundan dalolat beradiki, ushbu soz asrga monand takomillashgan. Ud cholg'usi esa XV asrlarda keng tarqalgan bo'lib, dastlabki ko'rinishi ikki tordan iborat bo'lgan [7]. Ud sozini qadimda cholg'ular shohi deb ham atashgan. Ud sozi milliy mumtoz san'atining yirik cholg'ularidan biri deya yuritilgan. Husayn usta tomonidan cholg'uning shakli va ijro uslublari takomillashtirilgan. Bu soz hozirgi davrda ham o'z qadr-qimmatiga ega. Dutor cholg'usi ikki torli soz, du – ikki, tor – tor ma'nolarida kelgan [6, 11-b]. XV asrlarda keng tarqalgan bo'lib, ikki torli noyob soz sifatida qaralgan, hozirgacha bu colg'u ikki torda chalinadi va o'zbek milliy musiqa san'atidagi roli katta. O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda milliy cholg'ularning rivojlanishi musiqa san'atining rivojlanishiga, xususan,

ilmiy-ma'daniy meroslarni yuksaltirishiga katta hissa qo'shdi. Bu davrlarda milliy cholg'ularning morfologik tuzilishi ilk davrlardagi holatlarga nisbatan keskin oshdi.

Morfologik evolyutsiya yoxud takomillashtirish: O'rta va qadimgi asrlarda. Ilk asrlarda ya'ni antik davrlarda milliy cholg'ular, asosan, sodda ko'rinishda bo'lgan, ko'p hollarda maishiy hayot uchun qo'llanilgan. IX–XV asrlarga kelib cholg'ularning turlari takomillashgan va murakkablashgan. Zarbli cholg'ulari: ilk asrlarda insonlar tarafidan bir-biriga xabar yetkazish vazifasini bajargan, qadimda zarbli cholg'ular faqat marosimlarda qo'llanilgan, marosimlarni tantanali ochib berish uchun, asosan, saroylarda shohning farmonini yetkazish va xalqni bir joyga to'plash maqsadida ham qo'llanilgan. Zarbli cholg'ulardan doyra va nog'oralar

O'rta asrlarda turli o'lchamliklarda bo'lgan. Ularning tovushlari tuzilishi murakkablashtirilgan.

Torli kamonli cholg'ular: g'ijjak cholg'usining ilk shakllari, ko'rinishlari VII–X asrlarda paydo bo'lgan. Bu musiqa tarixida yana bir uyg'onish davri bo'lib kelgan. Torli cholg'ular: ilk asrlarda arfa (chang)larining soddalashtirilgan turi tarqalgan bo'lsa, uning o'rnini morfologik jihatdan mukammalroq ud, tanbur, dutor cholg'ulari egalladi. Masalan, tanburning tovush diapazoni kengaytirildi.

Puflab chalinadigan sozlar: nay cholg'usiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu soz ilk asrlarda qamishdan yasalgan bor yo'g'i 5 ta teshikdan tashkil topgan kichkinagina cholg'u edi. Avvallari bu naylarni cho'pon nay deb atashgan. Xalq og'zaki ijodi manbalarida nayning kelib chiqishi tabiat hodisalari va insonning amaliy tajribasi bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Ilmiy manbalarda esa nay cholg'usining shakllanishi tabiat hodisalari va insonning amaliy tajribasi bilan bog'liq holda izohlanadi [3, 9-b]. Bunday talqinlar nayning dastlabki shakllari oddiy tabiiy materiallar asosida yuzaga kelganini va vaqt o'tishi bilan konstruktiv jihatdan takomillashib borganini ko'rsatadi. Natijada, nay asrlar davomida turli ko'rinishlarda rivojlangan xalq cholg'ularidan biri sifatida qoraladi [10, 11-b].

O'rta asrlarda cholg'ularning tahlili

Shakli jihatdan ilk asrlarda cholg'ular soda, ko'pincha asimmetrik shaklda ifodalangan, rivojlangan asrlarda esa cholg'ular akustik jihatdan murakkabroq va matematik tarafdin hisoblaganda parda va lad tizimlari o'rnatilgan. O'rta asrlarda cholg'ular shunchaki soz bo'lib qolmasdan, murakkab takomillashgan mexanizmga aylandi. O'rta asrlarda Osiyoda cholg'ularni faqat san'at sifatida ko'ribgina qolmay balki, yirik tarixiy va ilmiy tadqiqotlar obyekti sifatida ham ko'rilgan. Bu davrlar tarixda oltin yozuvlar bilan "Musiqiy organologiya" [3] cholg'ushunoslikning oltin davri" deb yozilgan.

O'rta asrlarda cholg'ularning tasniflanishi (sinflanishi). O'rta asrlarda Forobiy va Ibn Sino cholg'ularning o'xshashligi va sado berish usuliga qarab guruhlariga ajratganlar. Bu tasniflashlar hozirda zamonaviy asrlarda ham xizmat qilib kelmoqda.

Torli mezboli cholg'ular: tanbur, ud, rubob, qonun, chang; torli kamoni cholg'ular: g'ijjak va uning ilk shakllari; zarbli cholg'ular: nog'ora, safoyl, doyra; damli cholg'ular: qamish nay, surnay, karnay, qo'shnay kabi sozlar kiradi.

O'rta asrlar Sharq musiqa madaniyati insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim bosqichlardan biri hisoblangan. Aynan shu davrlarda milliy cholg'ular nafaqat insonlarga ma'naviy jihatdan ozuqa beribgina qolmasdan, balki ruhiy tarbiya ham bergan. Musiqiy cholg'ular xalqning dunyoqarashi, urf-odatlar, falsafiy qarashlari hamda estetik didni o'zida mujassamlashtirgan. O'rta asrlarda musiqa og'zaki an'ana asosida rivojlanib, avlodlardan avlodga yetib kelgan. Bu ko'rinish tarixdan bizga ma'lumki "Ustoz – shogird" an'anasi sifatida muhrlanib qolgan. Sharq mutafakkirlari musiqani inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi kuch sifatida baholaganlar. Shu boisdan ham milliy cholg'ular jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Saroy marosimlarida, xalq bayramlarida, diniy marosimlarda va kundalik hayotda cholg'ular keng qo'llanilgan.

O'rta asrlar yozma manbalarida milliy cholg'ular tasnifi; o'rta asrlarda milliy cholg'ular haqidagi ma'lumotlar, asosan, musiqa nazariyasiga bag'ishlangan risolalar, tarixiy manbalar va adabiy asarlarda uchraydi. Abu Ali Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy kabi allomalar o'z asarlarida cholg'ularning tuzilishi, tovush xususiyatlariga, ijro etish ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratganlar. Manbalarda cholg'ular asosan, 3ta asosiy guruhga bo'linadi: torli cholg'ular, puflama cholg'ular, zarbli cholg'ular. Bu tasnif bugungi kundagi zamonaviy musiqashunoslikda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. O'rta asrlarda torli cholg'ular yetakchi o'rinni egallagan, asboblarda murakkab kuylar, maqomlarni ijro etishda yetakchilik qilgan [3]. Puflama cholg'ular ko'proq harbiy yurishlarda, tantanali marosimlarda xalq yig'inlarida keng qo'llanilgan. Zarbli cholg'ular ritmik asosni ta'minlab, musiqaning ichki tuzilishini mustahkamlab bergan. Torli milliy cholg'ularning shakllanishi va taraqqiyoti. O'rta asrlarda torli cholg'ular musiqiy ijrochilikning eng mukammal shakli sifatida rivojlangan. Ayniqsa, ud, chang, qo'biz, rubob, tanbur cholg'ulari Sharq musiqasining asosiy

ifoda vositasiga aylandi. Ud cholg'usi keng diapazoni va yumshoq tembri bilan ajralib turgan. U saroy musiqasida yetakchi cholg'u sifatida shuhrat qozongan bo'lib, murakkab kuylarni ijro etishda yetakchi ro'l bajargan. Tanbur cholg'usi torlari uzunligi hamda rezonans imkoniyatlari yuqoriligi sababli, falsafiy va lirik mazmundagi kuylarni ifodalashda qo'llanilgan. Torli cholg'ularning rivoji faqat texnik jihatdan emas, asosan, ijrochilik madaniyati nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ijrochilar nafaqat kuy chalgan, balki improvizatsiya orqali o'z hissiy holatini musiqada ifodalaganlar. Torli cholg'ular maqomlarni ijro etishda yetakchi o'rinni egallagan [11, 13-b].

Markaziy Osiyo hududida nay cholg'usining shakllanishi Eron va Yaqin Sharq madaniy muhitidagi o'xshash damli cholg'ular bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu taqqoslash natijasida nayning o'ziga xos milliy xususiyatlari aniqlangan. Tarixiy manbalar asosida nay cholg'usining rivojlanishini dastlabki sodda shakllari, o'rta asrlardagi takomillashuv bosqichi hamda keyingi davrlardagi ijrochilik imkoniyatlarining kengayishi sifatida tasniflash mumkin. Puflama cholg'ular o'rta asrlar musiqiy hayotida muhim kommunikativ vosita bo'lib xizmat qilgan. Surnay, qo'shnay, nay, karnay kabi cholg'ular tantanali va ommaviy tadbirlarning ajralmas bo'lagi bo'lgan. Puflama cholg'ularning o'rta asrlardagi ahamiyati shundaki, ular musiqa orqali ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qilgan. Bu cholg'ular xalq ongida qudrat, birlik va tantana ramzi sifatida qaralgan. Surnay, karnay asboblari kuchli ovoz imkoniyatiga ega bo'lib, xalq bayramlarida, davlat marosimlarida xizmat qilgan. Nay cholg'usi ko'proq ruhiy-falsafiy kuylarni ijro etishda qo'llanilib, tasavvufiy marosimlarda foydalanilgan. Nay sadolari insonni ichki tafakkurga chorlab, ruhiy poklanishga undagan. Shu sababli, bu cholg'ular ko'pincha ma'naviy ramz sifatida talqin qilingan. Zarbli cholg'ular o'rta asrlarda musiqa tizimida ritmik asosni belgilovchi muhim omil sifatida qaralgan. Nog'ora, doira cholg'ulari kuylarning ichki tuzilishini mustahkamlab, ijroga dinamika baxsh etgan. Nog'ora harbiy yurishlarda qo'llanilgan bo'lib askarlarning saf tortishida, xavf xatardan ogohlantirishda qo'llanilgan [10, 12-b]. Nog'ora kuch va qat'iyat timsoli bo'lgan.

Zarbli cholg'ular musiqaning umumiy sur'ati va kayfiyatini belgilaydi. Zarbli cholg'ular ko'pincha raqs, marosim, ommaviy bayramlar bilan bog'liq holda ishlatilgan. Doira xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, ayollar ijrochiligida muhim o'rin egallagan. Bu cholg'u nafaqat ritm, balki insonlarning emotsional holatini ham ko'rsatib beradi. Ritmik tafakkurning rivoji o'rta asrlarda musiqa nazariyasining shakllanishiga ham turtki bo'lgan. Zarb va usullar tushunchalari aynan shu davrda ilmiy jihatdan asoslanilgan. O'rta asr milliy cholg'ularining madaniy meros sifatidagi ahamiyati katta. O'rta asrlarda shakllangan milliy cholg'ular bugungi zamonaviy musiqa madaniyatining ildizi hisoblanadi. Ushbu cholg'ular orqali xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va milliy o'zligi saqlanib qolgan. Ular nafaqat musiqiy sozlar, balki madaniy meros namunasi hamdir.

Zamonaviy musiqa san'atida o'rta asr cholg'ularining qayta tiklanishi va sahna amaliyotiga joriy etilishi milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu cholg'ular orqali yosh avlodga tarixiy musiqiy tafakkur yetkazilmoqda. Shu boisdan, o'rta asr milliy cholg'ularini ilmiy o'rganish, ularni hujjatlashtirish va amaliyotga tatbiq etish bugungi musiqashunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Demak, o'rta asrlar davrida milliy cholg'ularning rivojlanishi va takomillashuvi ijtimoiy-madaniy jarayonlar hamda ilmiy-amaliy tajribalar asosida amalga oshgan. Ushbu davrda cholg'ularning shakli, tovush imkoniyatlari va ijrochilik uslublari takomillashib, milliy musiqa san'atining barqaror rivojiga zamin yaratilgan.

Mazkur maqolada o'rta asrlarda milliy cholg'ularning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va musiqiy madaniyatdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. O'rta asr musiqiy tafakkuri milliy cholg'u orqali xalqning estetik qarashlari, ma'naviy qadriyatlari va ijtimoiy hayotini aks ettirgan muhim madaniy hodisa ekanini ko'rsatadi. Aniqlanishicha, torli, zarbli va puflama cholg'ular o'ziga xos ijro imkoniytlari va vazifalari bilan ajralib turgan. Torli cholg'ular murakkab kuy va maqomlarni ifodalashda yetakchi o'rinni egallagan bo'lsa, nafasli cholg'ular tantanali va marosimiy vazifalarni bajargan. Zarbli cholg'ular musiqaning ritmik

madaniyatining tizimli va mukammal rivojlanganidan dalolat beradi. Shuningdek, o'rta asr mutafakkirlarning musiqaga oid ilmiy qarashlari milliy cholg'ularning nafaqat nazariy, balki amaliy asosga ega bo'lganligini tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytganda, o'rta asr milliy cholg'ularini ilmiy jihatdan o'rganish, saqlash va zamonaviy ijrochilik amaliyotiga tatbiq etish milliy madaniy merosni rivojlantirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Forobiy A. *Kitob al-musiqa al-kabir*. – Dār al-Kitāb al-‘Arabī li-l-Ṭibā‘a wa-al-Našr: Qohira, 1967. – 1208 b.
2. Ibn Sino A. *Donishnoma*. – Toshkent: Fan, 1980. – 178 b.
3. Urmaviy S. *Kitob al-advor. Kitāb al-Adwār*. – Bag‘dod: Al-Jumhūrīyah al-‘Irāqīyah, 1980. – 230 b.
4. Marog‘iy A. *Maqosid al-alhon*. – Tehran: Bungah-i Tarjumih va Nashr-i Kitab, 1966. – 539 b.
5. Rajabiy Y. *O‘zbek xalq musiqasi*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1975. – 480 b.
6. Fitrat A. *O‘zbek klassik musiqasi va tarixi*. – Toshkent: Fan, 1993. – 55 b.
7. Karimov A. *Sharq musiqi madaniyati tarixi*. – Toshkent: San‘at, 2008. – 350 b.
8. Qodirov T. *Musiqi nazariyasi asoslari*. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2015. – 254 b.
9. Is‘hoqov M. *Maqom san‘ati va cholg‘ulari*. – Samarqand: Sharq, 2022. – 258 b.
10. Yunusov R. *O‘zbek cholg‘u ijrochilik tarixi*. – Toshkent: Musiqi, 2010. – 256 b.
11. Rajabiy Y. *Maqom asoslari*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1987. – 116 b.
12. Abdullayev R. *O‘zbek xalq cholg‘ulari va ularning taraqqiyoti*. – Toshkent: Fan, 2004. – 280 b.

-
13. Jabborov I. *Ozbek musiqa merosi va an'analari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 204 b.
14. Azimov A. *O'rta asr Sharq musiqa madaniyati*. – Toshkent: San'at, 2009. – 300 b.
15. Hasanov S. *Musiqiy meros va ijrochilik masalalarlari*. – Toshkent: Musiqa, 2018. – 280 b.